

11. Ibodovich T. R. Xalq qo'shiqlari vositasida o'quvchilarning ma'naviy-axloqiy fazilatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari //Journal of Universal Science Research. – 2023. – T. 1. – №. 12. – C. 324-332.

12. Ibodovich T. R. Xalq og'izaki poetik ijodining tarixi va o'ziga xos xususiyatlari //Technical science research in Uzbekistan. – 2023. – T. 1. – №. 4. – C 144 155.

**REZYUME.** Maqolada umumta'lim maktabi musiqa madaniyati darslari jarayonida bolalar folklor qo'shiqlarini o'rgatishda pedagogik shart-sharoit va imkoniyatlar hamda o'qituvchi kasbiy mahorati xususida mulohazalar bayon etiladi.

**РЕЗИЮМЕ.** В статье описаны педагогические условия и возможности обучения детей народным песням на уроках музыкальной культуры общеобразовательной школы, а также даны комментарии к профессиональному мастерству педагога.

**SUMMARY.** The article describes the pedagogical conditions and opportunities for teaching folk songs to children during the music culture classes of the general education school, as well as comments on the teacher's professional skills.

## MUSIQA SAN'ATINI YANADA RIVOJLANTIRISH ASOSLARI

**Jaqsiliq Jarilqasimovich Saytov**– o'qituvchi

*O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti Nukus filiali*

**Tayanch so'zlar:** to'garak, sinfdan tashqari ta'lim, kompleks, xor, vokal-cholg'u, ashula va raqs ansambli, vokal ansambli, cholg'uchilar ansambllari (rubobchilar, dutorchilar, doirachilar va h.k), nafasli puflama cholg'uchilar, pauza, fermata, kanon, VIA, raqs ansambli, orkestr (puflama damli, xalq cholg'u asboblari orkestri), yakkaxon qo'shiqchilar, folklor dastasi, vokal-xor, lad, ovoz apparati, ovozni tayyorlash mashqlari, temp, diksiya, intonasiya, registr, badiiy ijro, teatr.

**Ключевые слова:** кружок, внеклассное обучение, комплекс, хор, вокально-инструментальный, ансамбль песни и пляски, вокальный ансамбль, инструментальные ансамбли (руобисты, дуторщики, кружковщики и др.), духовые инструменты, пауза, фермата, канон, ВИА, ансамбль танца, оркестр (духовой, оркестр народных инструментов), сольные певцы, фольклорная труппа, вокальный хор, лад, звуковая аппаратура, упражнения для тренировки голоса, темп, дикция, интонация, регистр, художественное исполнение, театр.

**Key words:** circle, out-of-class education, complex, choir, vocal-instrumental, singing and dancing ensemble, vocal ensemble, instrumental ensembles (ruob players, dutor players, circle players, etc.), wind instruments, pause, fermata, canon, VIA, dance ensemble, orchestra (duchovoy, folk instruments orchestra), solo singers, folklore troupe, vocal choir, lad, sound apparatus, voice training exercises, tempo, diction, intonation, register, artistic performance, theater.

O'quvchilarni umumiy rivojlanish, qiziqishlarini kengayishi, ahloqiy-estetik va emotsional kamoloti mustaqil va sinfdan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlarga ko'p jihatdan chambarchas bog'liqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida musiqaviy-estetik tarbiya musiqa tarbiyachisiga qaraganda ancha keng ko'lamli vazifalarni ko'zda tutadi va qamrab oladi. Bu jarayonda musiqa darsi muhim o'rin tutadi, lekin buni o'zi to'la ma'noda yetarli bo'lmaydi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida musiqiy-estetik tarbiya tizimi ko'pgina yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bular musiqa darsi, musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, xor studiyalari, to'garaklar va oilaning roli juda katta. Bularning barchasi umumiy (kompleks) tarzda musiqaviy-estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilarning san'at va adabiyotga, uning turli sohalariga qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi, rivojlanadi, shakllana boradi. Maktabda musiqiy-

estetik ta'lim va tarbiyaning asosiy ish formasi fan uchun tavsiya etilgan yagona DTS dastur asosidagi olib boriladigan musiqa darslaridir. Bu faoliyat o'quvchilarni musiqa sohasida har tomonlama rivojlantirish, ahloqiy-estetik kamol toptirish vazifalarini nazarda tutadi.

Musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari ta'lim va tarbiyasi bevosita darsdagi o'qitish tizimiga tayanadi, umumiy maqsad va vazifalar negizida o'quvchilarni musiqaga qiziqish va ehtiyojlarini izchillik bilan rivojlantirib boradi. Ma'lumki, umumiy ta'lim maktablari o'quvchilarni professional musiqa faoliyatiga tayyorlashni o'z oldiga asosiy maqsad qilib qo'ymaydi.

Biroq musiqani tushunish, uni idrok qilish, undan emotsional ta'sirlanish har bir o'quvchiga, u kelajakda musiqachi san'atkor bo'ladimi yo'qmi bundan qat'iy nazar xos bo'lmog'i kerak. Shu narsa yaxshi ma'lumki, musiqadan yaxshi tayyorgarligi bo'lgan kishilarda badiiy did ancha

yuqori bo‘ladi, idroki boy bo‘ladi. Maktabda musiqa bo‘yicha sinfdan tashqari ishlarni yaxshi yo‘lga qo‘yilishi musiqiy ta‘lim va tarbiya mazmunini har jihatdan to‘ldirish, mukammal va to‘laqonli bo‘lishda katta ahamiyat kasb etadi. Sinfdan tashqari musiqiy tarbiyani asosiy maqsadi o‘quvchilarni iloji boricha ko‘proq ommaviy-madaniy va to‘garak ishlariga jalb etish orqali ularni dunyoqarashlarini, qiziqish va ehtiyojlarini har tomonlama rivojlantirish, badiiy didini o‘stirish, shu orqali malakaviy madaniyatini tarbiyalashdan iboratdir. Umumta‘lim maktablarida sinfdan tashqari musiqa tarbiyasini ikkita shakli mavjud.

1. Musiqa tarbiyasining ommaviy shakli
2. Musiqa tarbiyasining to‘garak shakli.

Sinfdan tashqari musiqa tarbiyasi ommaviy shaklida o‘quvchilarga yalpi tarzda o‘tilaveradi. Bu shaklda turli bayramlarga, musiqa bo‘yicha ko‘rik-tanlovlarga, ijodiy uchrashuvlarga teatr va konsertlarga jamoa bo‘lib tushishi, «Alifbe» bayramlari, shoir, bastakor, qo‘shiqchi-hofizlar bilan uchrashuvlarga tayyorgarlik, qatnashish kabilar kiradi. Ammo bularning har biriga bolalarni yoshi, qiziqishlariga qarab oldindan tayyorlab berish kerak bo‘ladi. To‘garaklar esa maktab o‘qituvchisining imkoniyatlariga (cholg‘uvchilik, ijrochilik) qarab tuzilishi mumkin. Maktablarda tuziladigan to‘garaklar:

1. Xor.
2. Vokal-cholg‘u.
3. Ashula va raqs ansambli.
4. Vokal ansambli.
5. Cholg‘uvchilar ansambllari (rubobchilar, dutorchilar, doirachilar va h.k).
6. Raqs.
7. Nafasli puflama cholg‘uvchilar.

Bu ishlarni tashkil etish musiqa o‘qituvchisini kasbiy tayyorgarligi va darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Har bir ommaviy tadbir va to‘garak ishlarini yuksak badiiy did bilan tashkil etish, tizimli asosda olib borish juda ma‘suliyat bilan ishlansa va bu ishga alohida mehrni talab etadi.

Musiqa o‘qituvchisining ommaviy ishlar rejasi maktab ma‘naviy-ma‘rifiy ishlar mudiri, maktab yetakchisi bilan tanish bo‘lgan holda turli bayram, uchrashuvlar, tadbirlarni hisobga olgan holda tuziladi. Ommaviy musiqa mashg‘ulotlarini har biri aniq maqsad, aniq ishlab chiqilgan reja asosida amalga oshirilmog‘i lozim. Bunda har tadbirni o‘z hususiyatlaridan kelib chiqib, ularga o‘quvchilarni jalb qilish muhim payt hisoblanadi. Mashg‘ulot turli xususiyati, repertuar mazmuni, maktabning imkoniyatlari, taklif etiladigan mehmonlar hisobga olinadi. To‘garaklar ish rejalar ko‘proq musiqa o‘qituvchisi yoki to‘garak rahbarining imkoniyatlariga qarab tuziladi.

To‘garak ishlariga jalb qilishda birinchi galda o‘quvchilarni qiziqishi, cholg‘uvchilik va ashulachilikka mos imkoniyatlari (ovozi, diapozoni) e‘tiborga olinadi va ular guruhlariga bo‘linib, haftasiga 2-3 bor mashg‘ulotlar olib boradi. To‘garak faoliyatini ko‘zga ko‘rsatadigan, uni samaradorligini belgilovchi narsa bu maktab sahnasidir. O‘quvchilar tadbirlarda qo‘shiq, raqslar, rollar ijro etib, maktab jamoasi oldida e‘tibor qozonadi, shahar, tuman, viloyat, respublika ko‘rik-tanlovlarida qatnashadilar. Bularning barchasi ularning o‘z mehnatidan, zavqlanish, vatanga, tabiatga, hayotga, musiqa san‘atiga hurmat ruhida tarbiyalashga hizmat qiladi.

Shunday ekan bugungi kunda pedagog kadrlarni tayyorlashda jiddiy yondoshish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Talabalarimizni olgan nazariy bilimlari bilan birga amaliy mashg‘ulot o‘tkazgan darslari va o‘quv tarbiya mashg‘ulotlarida guruhning barcha talabalari o‘qituvchi ishtirokida tahlil va muhokamalar darslarni umumta‘lim maktablaridagi musiqa madaniyati darsi va sinfdan tashqari ishlar bilan bog‘lash, talabalik davridan ularni ijodiy ishlarga jalb qilish muhim rol o‘ynaydi.

O‘tkazilgan darslarning, tarbiyaviy ishlarning va madaniy-ommaviy tadbirlarning tahlili talabalarni musiqa o‘qituvchilari oldiga qo‘yilayotgan talablar darajisida tayyorlash asosiy omil bo‘lib hisoblanadi.

Musiqa yosh avlodga shodlik va ilhom baxsh etib, ularning tafakkur hamda hissiyatini rivojlantirib boradi, g‘oyaviy – badiiy va ma‘naviy tarbiyasiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi.

Musiqa ta‘limi majmuidagi havaskorlik to‘g‘risida san‘ati, jumladan, milliy xalq cholg‘u asboblari ansambli (to‘garagi) maktab hayotida yetakchi o‘rinni egallaydi. Chunki maktabda o‘tkaziladigan xilma-xil mavzudagi adabiy kechalar va uchrashuvlarda ansambl jamoasi bevosita ishtirok etadi. O‘zining musiqiy ijrosi, qo‘shiq va raqslari bilan kecha qatnashchilariga olam-olam shodlik ilhom etadi. Shuningdek, to‘garak qatnashchilari o‘z qiziqishlarini qondiribgina qolmay, ma‘naviy jihatdan boyib, badiiy madaniyat va san‘atga doir bilimlari kengayib, o‘zlari tayyorlagan kontsert nomerlari bilan yoshlarni estetik ruhda tarbiyalaydilar. To‘garakning yana bir fazilati – yoshlarni axloqiy jihatdan har tomonlama o‘stirishga yordam beradi, chunki har bir madaniyatli kishi o‘zining yaxshi fazilatlarini chiroyli va tabiiy holda namoyon qilishga intiladi. Shuning uchun davlatimiz badiiy havaskorlikni rivojlantirishga katta ahamiyat berib, ular to‘g‘risida g‘amxo‘rlik qilib kelmoqda va yosh ijrochilarning kamol topib, yetuk

san'atkorlarga munosib o'rinbosarlar bo'lib yetishishlari uchun bor imkoniyatlarni yaratib bermoqdalar.

Ma'lumki, maktabda milliy xalq cholg'u asboblari ansambl to'garagini tashkil etib, ko'pchilikka o'quvchilarni san'at sirlaridan bahramand etish o'z-o'zidan bo'lmaydi. Buning uchun, eng avvalo ansambl ishi va uning turlarini to'g'ri tashkil qilish zarur. Ayniqsa bu sohada o'quvchilar yoshiga va didiga mos musiqa asarlarini tanlab o'rgatish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini zamon talabi asosida olib borish o'ta muhimdir. Chunki har tomonlama puxta o'ylab tanlangan musiqa asarlari o'quvchilarni ahloqiy, ma'naviy jihatdan to'g'ri tarbiyalaydi, ularning badiiy didi va ijodiy malakalarini, shuningdek, go'zallikdan zavqlanish qobiliyatlarini rivojlantiradi.

To'garak rahbarlari; Musiqa ta'limi bo'yicha sinfdan va maktabdan tashqari ishlarni tashqil etish, shakl va usullari bilan tanishish, ommaviy tadbir va to'garaklar rejasi va tadbirlarini tuzish. Maktabda sinfdan tashqari ishlarning turlariga to'garaklar ish faoliyatini tashkil etish. O'quvchilarni sinfdan va maktabdan tashqari tadbirlarga tayyorlash va konsertlarga jalb etish metodlariga ega bo'lmog'i darkor. O'zbekiston maktablari tajribasi va shart-sharoitlarini o'rganish shuni ko'rsatadiki, aksariyat maktablarda milliy xalq cholg'u asboblari ansambl yo boshqa turdagi jamoaviy dastalari tuzilmagan va mavjudlari ham amaliy-tadrijiy (o'quv qo'llanma) yordamiga muhtoj. Ana shularni inobatga olib, milliy xalq cholg'u asboblarning to'garak shaklidagi ansambl rahbarlariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida ushbu o'quv qo'llanmasi yaratildi.

Musiqa to'garaklarini tashkil etish; (ilg'or pedagogik innovatsion texnologiyalar misolida) deb, nomlangan mazkur o'quv qo'llanma barcha musiqiy fanlarni o'z ichiga qamrab olingani bilan ahamiyatlidir. Jumladan; ixtisoslik fanlaridan "Musiqa o'qitish metodikasi va maktab repertuari, maktab darsligi bilan ishlash, musiqa o'qitish tarbiyasi, musiqa nazariyasi, xalq cholg'ulari,

vokal ijrochiligi, an'anaviy ijrochilik, estrada klavish cholg'ulari va xonandaligi, kabi fanlar bilan chambarchas bog'lab olib borilganda muvafaqqiyatli amalga oshirilishi muqarrar. Ushbu yangi adabiyotlar ish tarjimalari va fan yangiliklari bilan boyitildi. O'quv qo'llanma pedagogik oliy o'quv yurtlari talabalari va "Musiqa to'garaklarini tashkil etish" fani o'qituvchilari uchun mo'ljallangan bo'lib, unda bo'lg'usi musiqa o'qituvchilari egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar mazmunan belgilab berilgan.

*"Inson, -yumushlari birla o'tar, qayg'ulidir bu damlar,*

*ne oldindan qo'ysang maqsad, sabring erishtirar unga albat!.*

*Umring o'tsa tanhoyu na-kor, na-xotirod ul-qaytari zamon,*

*- bilgin!, qabring ham unda bekor!!"*

O'quvchilarni umumiy rivojlanish, qiziqishlarini kengayishi, ahloqiy-estetik va emotsional kamoloti mustaqil va sinfdan tashqari mashg'ulotlar va tadbirlarga ko'p jihatdan chambarchas bog'liqdir. Kuzatishlar shuni ko'rsatadiki, umumta'lim maktablarida musiqaviy-estetik tarbiya musiqa tarbiyachisiga qaraganda ancha keng quylashli vazifalarni ko'zda tutadi, qamrab oladi. Bu jarayonda musiqa darsi muhim o'rin tutadi, lekin buni o'zi to'la ma'noda yetarli bo'lmaydi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida musiqiy-estetik tarbiya tizimi ko'pgina yo'nalishlarni o'z ichiga oladi. Bular musiqa darsi, musiqadan sinfdan va maktabdan tashqari ishlar, xor studiyalari, to'garaklar va oilaning roli juda katta. Bularning barchasi umumiy (kompleks) tarzda musiqaviy-estetik muhitni tashkil etadiki, bu muhitda o'quvchilarning san'at va adabiyotga, uning turli sohalariga qiziqish va ehtiyojlari vujudga keladi, rivojlanadi, shakllana boradi.

Ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar, yangicha ijodiy yondoshuvlar, bo'lajak musiqa o'qituvchilariga kasbiy faoliyatlarini puxta o'rganishlari uchun ko'maklashadi.

### Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Xalq ta'limi tizimidagi maktabdan tashqari ta'lim samaradorligini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" 2019-yil 30-sentabrdagi PQ-4467-son qarori ijrosini ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qarori deyilgan. Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-maydagi 331-son qaroriga 5-ilova.
2. Кароматов Ф. Ўзбек халқ музыкаси, "Ўзбекистон" нашриёти, Тошкент, 1972. Musiqa o'qitish metodikasi. TDPU – 2005 yil.
3. Омонуллаев Д.В. "Биринчи синфда музика дарслари". Ф.Фулом нашриёти. Т. , 1987 й.
4. Омонуллаев Д.В. "Иккинчи синфда музика дарслари". Ф.Фулом нашриёти. Т. , 1987 й.
5. Рўзиев Д.Й. "Болалар ансамблларининг репертуари ва уни такомиллаштириш йўллари" (Тадрижий тавсиялар), Республика илмий методик маркази. Т., 1985 й.

6. Саидий Саид Болта-Зода (2023). Теоретическое рассмотрение вероятности совпадения неаккордовых звуков в произведениях. *Science and Education*, 4 (1), 556-562.
7. Said Boltazoda Saidiy. Conception of military musical instruments in the Temurid Era. *Evropean Journal of Molekular & Klinikal Medicine*. 2020/7/7.7002- 7010
8. Saidiy S.B. “O‘zbek musiqasi tarixi”, Buxoro “Durdona” nashriyoti. 2020 yil.
9. Турсунов Р. “Ўзбекистонда мусиқа ҳаваскорлиги”, “Ўзбекистон”. Т., 1985 й.
10. Қўлдошев Л. Х. Мактабда хор тўгараги. “Ўқитувчи”, Т., 1985 й.
11. Ҳасанов А. Ш. Мактабда вокал тўгараги. “Ўқитувчи”, Т., 1987 й.
12. Дўстов С.Д. “Ҳаваскорлик рубобчилар ансамбли ва оркестрини тузиш” (Тадрижий тавсиялар), Республика илмий методик маркази. Т., 1984 й.
13. Estetik tarbiya asoslari. N.A.Kushaev tahriri ostida. –Toshkent, -O‘qituvchi, 1988 yil.
14. Хрестоматия по методике музыкального воспитания. –Москва, -Проевидение –1987 йил.

**REZYUME.** Maqolada “Musiqqa san’atini yanada rivojlantirish asoslari” Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar o‘quv yurtlari talabalarini umumta’lim maktablarida musiqqa madaniyati darslarini va sinfdan tashqari musiqqa tarbiyasi va to‘garak ishlarini metodik jihatdan to‘g‘ri tashkil etib, DTS dasturi asosida mazmunli qilib olib borishga qaratilgan bo‘lib, Respublikamizdagi umumta’lim maktabi bo‘lajak musiqqa o‘qituvchilarini tayyorlash sohasida olib borilayotgan musiqqa ta’limi va san’at sohasidagi madaniy– ma’rifiy islohotlar, ilmiy tadqiqot, chop etilgan mavjud adabiyotlardan ijodiy foydalangan holda mo‘ljallangan.

**РЕЗИЮМЕ.** В статье «Основы дальнейшего развития музыкального искусства» учащиеся высших, научно-инновационных образовательных учреждений методически правильно организуют уроки музыкальной культуры и внеклассное музыкальное воспитание и клубную работу в общеобразовательных школах. проводить содержательные, культурно-просветительские реформы в области музыкального образования и искусства, научные исследования, издавать существующую, оформленную с творческим использованием литературу.

**SUMMARY.** In the article “Foundations for the further development of musical art” students of higher, scientific and innovative educational institutions methodically correctly organize lessons in musical culture and extracurricular music education and club work in secondary schools. carry out meaningful, cultural and educational reforms in the field of music education and art, scientific research, publish existing literature, designed with creative use.

## **ПСИХОТЕХНИКА В АКТЕРСКОМ МАСТЕРСТВЕ**

**Уразмбетова Лизахан Гасполатовна - заведующий кафедрой режиссуры  
Нукусского филиала Государственного института искусства и культуры Узбекистана**

**Таянч сўзлар:** психотехника, актёрлик маҳорати, ҳиссий субтекст, тинглаш, эмоциональ импровизация, ҳиссий заифлик, контекст, чидамлик, мослашувчанлик, барқорарлик, актёрлик техникаси.

**Ключевые слова:** психотехника, актерское мастерство, эмоциональное воспоминание, эмоциональный подтекст, эмоциональные триггеры, эмоциональное слушание, эмоциональная импровизация, эмоциональная уязвимость, техники освобождения, эмоциональный контекст, эмоциональная выносливость, эмоциональная якорь, эмоциональная адаптивность, эмоциональная устойчивость, актерские приемы.

**Key words:** psychotechnics, acting skills, emotional recall, emotional subtext, emotional triggers, emotional listening, emotional improvisation, emotional vulnerability, release techniques, emotional context, emotional endurance, emotional anchor, emotional adaptability, emotional stability, acting techniques.

### **Введение:**

Психотехника в актерском мастерстве - это набор техник и подходов, используемых актерами для доступа и эффективной передачи эмоций в своих выступлениях. Эти методы углубляются в психологические и эмоциональные аспекты персонажа, позволяя актерам создавать аутентичные и убедительные образы, которые находят отклик у зрителей. Понимая и применяя психотехнику, актеры могут проникнуть в свою эмоциональную глубину, установить связь со своими персонажами и воплотить свою игру в жизнь.

В этой статье мы рассмотрим концепцию психотехники в актерском мас-